

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda Dinshunoslik fanining ahamiyati Axmedov Sanjar

Perfect University dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Tel.: +998909551819, e-mail: 9551819@gmail.com

Ubaydullayeva Xadicha

Perfect University talabasi

Annotatsiya. Ma'lumki, Dinshunoslik fani hozirda bakalavr bosqichining 1-kursida tahsil olayotgan barcha talabalar uchun majburiy shaklda o'tilmoqda. Bu fanning oliy ta'lim tizimida barcha talabalarga o'tilayotganligi bejizga emas albatta. Uning komil insonni tarbiyalashdagi o'рни va ahamiyati juda katta hisoblanadi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglar o'zining kelgusi faoliyatida muhim ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari hisobga olinsa, masalaning ahamiyati yanada oydinlashadi. Maqolada bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda ushbu fanning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Dinshunoslik, Pedagogika, islom, dinning funksiyalari, ildizlari, ta'lim muammolari, yechim

Kirish. Pedagogika fani talabalarga o'qituvchilik ko'nikmalarini o'rgatadi. Dinshunoslik fani esa, dunyo dinlari, tarixi, kelib chiqishi, ilohiy va mahalliy dinlar maqsadi va vazifalarini o'rgatuvchi fandır. Bu ikki fanning bir biriga bog'liqligi shundaki biror talaba pedagogika yo'nalishida o'qimoqda ekan, kelajakda u albatta qaysidir o'zlashtirgan fanidan dars berishi mumkin. Misol uchun tarix fani ma'lumki bu fanda ham pedagogika ham dinshunoslik muhim rol o'ynaydi. Ya'ni asosiy tarmoqlar hisoblanadi. Hammaga ma'lumki, diniy erkinlik mustaqillikka erishganimizdan so'ng rivojlana boshladi. Ungacha esa dinga O'zbekistonda deyarli ruhsat berilmagan. Sababi Sovet davlati xudosizlik mafkurasi hukm surgan mamlakat edi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng diniy erkinlik va bag'rikenglik siyosati o'rnatildi. Bundan foydalangan ayrim g'arazli kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida hali diniy ilmi bo'lmagan xalqimiz vakillarini yo'ldan urib, turli jinioiy hakarakatlarga boshladi. Natijada bir qator qo'poruvchilik harakatlari va totinchliklar yuzaga keldi. Hozirgi kunda ham din urushi to'xtadi deb ayta olmaymiz. Dunyo bo'ylab turli dinlar, turli yo'nalishlar bor ekan bu kabi hodisalar bo'lishi tabiiy albatta. Diniy savodxonlik va bag'rikenglik esa bu urushlarni yoqotishi mumkin. Ya'ni shaxsga dinlar bo'yicha to'g'ri tushuncha va kerakli bilim berilsa, johillik kamayadi, o'zaro hurmat va anglashuv vujudga keladi. Bizda avvaldan din

tushunchasi to'g'ri o'rgatilgan deb ham ayta olmaymiz. Buning sababi esa internetdagi norasmiy kanallarda uchraydigan ayrim buzg'unchi g'oyalarning tez tarqalishi fikrimizga misol bo'la oladi. Dinshunoslik fani din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limot ekanligini ko'ramiz.

Asosiy qism. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir. Din nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtayi nazar shuki, din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va eng go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir. Din nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtayi nazar shuki, din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va eng go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. Din insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. O'zbekiston ziyolilari oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilgan bir paytda din masalasini chetlab o'tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgari dinga agressiv hujum etish uslubining salohiyatsizligi hammaga ochiq ayon. Lekin keyingi paytda paydo bo'lgan diniy bo'lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo'lgan, fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o'zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga prinsipial, professional, ilmiy yondashuv darkordir. O'zbekiston

mustamlaka tarkibida bo‘lgan va jahon hamjamiyatidan ajratilib yashagan bir davrda, G‘arbda XIX asrning o‘rtalarida vujudga kelgan dinshunoslik fani ancha yo‘l bosib o‘tib, ko‘plab ilmiy natijalarga erishdi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tadqiqotchilari bu yangi soha bilan yaqindan tanishib, mutaxassis-kadrlarni tarbiyalay boshladilar. Din - e‘tiqod hamdir, bu esa har bir kishining shaxsiy ishi. Lekin shaxsni har qanday missioner tashkilotlar ixtiyoriga ham tashlab qo‘yib bo‘lmaydi. Ozod jamiyatda har bir inson o‘z shaxsiy munosabatini belgilab olishi uchun unga har tomonlama, boy, xolis-ilmiy axborot zarur. Bunday axborot ko‘p qirrali bo‘lmog‘i, birovning g‘arazli sharhisiz asl matnlar shaklida bo‘lsa maqsadga muvofiqdir. Eskirgan ma‘lumotlar asosida mutaxassis bo‘lmagan mualliflar tomonidan yozilgan asarlar hozirgi zamon axborot erkinligi va uning yetib kelishi oson bo‘lgan sharoitlarda o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida mazkur mualliflarning obro‘sizlanishiga yoki o‘quvchini noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lib qolishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda uning fuqarolari turli konfessiyalar vakillari bilan muloqot etishning yuksak madaniyatiga ega bo‘lishi ham juda muhimdir. Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo‘lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil hayot yo‘lini ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta‘limotdir. Din muayyan ta‘limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo‘ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo‘lgandan to bizgacha o‘tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo‘lgan ma‘naviy-axloqiy kuchdir. Din nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtayi nazar shuki, din ishonmoq tuyg‘usidir. Ishonmoq tuyg‘usi insoniyatning eng teran va eng go‘zal ruhiy-ma‘naviy ehtiyojlaridandir. Dunyoda dini, ishonchi bo‘lmagan xalq yo‘q. Chunki muayyan xalq dinsiz, e‘tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi. Dinshunoslikda dinga “dinning o‘zi nima?”, “uning mohiyati nimadan iborat?” degan savol nuqtayi nazaridan yondashishdan tashqari “din qay tarzda faoliyat olib boradi?” degan savol nuqtayi nazaridan ham yondashuv mavjud. Bu masala bilan ko‘proq din sosiologiyasi shug‘ullanadi. Sosiologik nuqtayi nazardan qaralganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni

yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu degani dini jamiyatdagi bajaradigan vazifalariga ko‘ra o‘rganish mumkin demakdir. Dunyoda dini, ishonchi bo‘lmagan xalq yo‘q. Chunki muayyan xalq dinsiz, e‘tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil bo‘lishi hodisasini olaylik. Inson o‘z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlari jarayonida hayoti maqsadlariga erishishi ilojisiz bo‘lib ko‘ringanida, unda qandaydir ma‘naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat sezgan. Ana shunday ehtiyoj diniy ehtiyoj edi. Din bu o‘rinda ma‘naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajaragan va hali ham bajarmoqda. Buddaviylik dini rohiblikni targ‘ib qilar ekan, bu dunyoda orzu-havaslardan, rohat-farog‘atdan voz kechgan inson nirvana holatiga erishgach, abadiy rohatda bo‘lishini ta‘kidlaydi. Shuningdek, xristianlikda har bir xristian Iso Masihning qaytishiga umid qilgan holda hayotning turli muammolarini yengib, sabr-bardosh bilan hayot kechiradilar. Chunki xristianlik Iso Masih qaytib kelgach barcha izdoshlarini saodatli hayotga yetkazishi haqidagi ta‘limotni ilgari suradi. Shuningdek, islom dinida ham har bir musulmon bu dunyoda erishmagan moddiy yoki ruhiy orzu-istaqlariga oxiratda erishishga ishongan holda dunyo orzu-havaslariga ortiqcha berilmay, turmush mashaqqatlariga sabr qiladi. Muayyan din o‘z ta‘limot tizimini vujudga keltirgach, o‘ziga e‘tiqod qiluvchilar jamoasini doirasida saqlashga harakat qilgan va hozirda ham shunday. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchilik - integratorlik vazifasi deb ataladi. Din hamisha muayyan ijtimoiy, etnik va ma‘naviy hayotning o‘z ta‘sirida bo‘lishiga intiladi. Masalan, yahudiylikda mazkur din vakillarini bir mafkura atrofida saqlab turish uchun ularni bir millat va yagona maslak egalari ekanliklari, yagona xudo - Yahvening eng sevimli bandalari ekanliklari uqtiriladi. Xristianlikda ham e‘tiqod qiluvchilarni bu dinga yanada ko‘proq jalb etish uchun diniy memoriy, tasviriy, musiqa san‘ati turlaridan unumli foydalaniladi. Xristianlikda maxsus ikona chizuvchilik maktablari faoliyat olib boradi. Har bir din o‘z qavmlari turmushini tartibga solib, nazorat qiluvchilik – regulyatorlik vazifasini bajaradi. Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida Pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi. Pedagogikada

ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlari o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyani tashkil etish, uyushtirish va uni boshqarish singari tashkiliy pedagogik ishlar qonuniyati pedagogikaning maktabshunoslik sohasi tomonidan ishlab chiqiladi. Pedagogika hamisha muayyan yoshdagi, ma'lum hayotiy va aqliy tajribaga ega bo'lgan kishilar bilan ish ko'radi. Shuning uchun ham pedagogikaning qonuniyatlarini belgilashda ta'lim tarbiya oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ayrim o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari va usullarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogikaning sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Ammo bu hil chegaralanish anchagina shartlidir. Chunonchi, adabiyot o'qitish metodikasi didaktikaga nisbatan xususiy didaktika hisoblanadi, ayni vaqtda, u mumtoz adabiyot tarixini o'rganish metodikasi, chet el adabiyotini o'rganish metodikasi, xalq og'zaki ijodini o'rganish metodikasiga nisbatan umumiy metodika vazifasini bajaradi. Xususiy metodikalar umumiy didaktikaga tayangan va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina rivojlana oladi. Ayni vaqtda, har bir aniq fanga tatbiq etilgan didaktik qonuniyatlar o'sha o'quv predmetini o'qitish tajribasidagi o'ziga xoslik bilan boyitiladi, umumiy jihatlarni konkretlashtiradi, har bir o'ziga xoslikda o'qitishning universal jihatlari namoyon etadi. Defektologiya bolaning qanday jismoniy nuqsonga egaligi hamda ularga beriladigan ta'lim tarbiyaning yo'naltirilganligiga qarab tiflopedagogika, surdopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya singari tarmoqlarga bo'linadi.

Pedagog o'quvchilarga bilim berar ekan, avvalo uni o'zi puxta anglab yetgan bo'lishi lozim. Xususan Dinshunoslik fani ham bundan mustasno emas. Dinni anglamagan inson o'quvchilarga noto'g'ri ma'lumot berishi mumkin. Bu holat noto'g'ri axborot olgan shaxslar tomonidan noto'g'ri axborot tashish orqali ko'payadi. Shu holat avval shaxsda keyin oilada va keyin esa jmiyatda sodir bo'ladi. Mana dinlar o'rtasidagi urushning kichik sababi. Bundan tashqari yer orttirish maqsadida ham dunyoviy va diniy mamlakatlarda urush sodir bo'ladi. Misol keltirish

uchun juda ko‘p sabablar bor ammo ular orasida eng ko‘p sabab bo‘layotgani ham din haqidgi noto‘g‘ri fikrlar rivojlanishiga omil bo‘ladi. O‘qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug‘ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e‘tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma‘naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog‘ini o‘z ichiga oladi. Ta‘lim-tarbiyani tashkil etish, uyushtirish va uni boshqarish singari tashkiliy pedagogik ishlar qonuniyati pedagogikaning maktabshunoslik sohasi tomonidan ishlab chiqiladi. Pedagogika hamisha muayyan yoshdagi, ma‘lum hayotiy va aqliy tajribaga ega bo‘lgan kishilar bilan ish ko‘radi. Shuning uchun ham pedagogikaning qonuniyatlarini belgilashda ta‘lim tarbiya oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ayrim o‘quv fanlarini o‘qitish qonuniyatlari va usullarini o‘rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogikaning sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Ammo bu xil chegaralanish anchagina shartlidir. Chunonchi, adabiyot o‘qitish metodikasi didaktikaga nisbatan xususiy didaktika hisoblanadi, ayni vaqtda, u mumtoz adabiyot tarixini o‘rganish metodikasi, chet el adabiyotini o‘rganish metodikasi, xalq og‘zaki ijodini o‘rganish metodikasiga nisbatan umumiy metodika vazifasini bajaradi. Xususiy metodikalar umumiy didaktikaga tayangan va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina rivojlana oladi. O‘zbek pedagogikasi juda qadim tarixga ega bo‘lib, uning dastlabki ildizlari Avestota, Urxun-Yenisey bitiklariga, Selungur madaniyatiga borib taqaladi. Avestodagi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal haqidagi, kishilarga ko‘ngil ma‘rifati berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogik qarashlarning dastlabki namunasi bo‘lib, yetuk insonning shakllantirishga yo‘naltirilgan. Milliy pedagogikaning taraqqiyotida islom dini va tasavvur ta‘limoti hal qiluvchi o‘rin tutadi. Chunki Qur‘oni karim, Xadisi sharif va tasavvuf ta‘limotining markazida axloq, komil inson ma‘naviyatini shakllantirish turardi. Komil inson ta‘lim-tarbiya yordamida, ya‘ni pedagogika vositasida tarkib toptirilishi mumkin edi. Forobiyning fozil odamlari, Beruniy, Ibn Sino falsafiy qarashlaridan o‘rin olgan yetuk shaxslar, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson odamlar, Abduxoliq G‘ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab orzulagan komil inson O‘zbek pedagogikasining markazida turardi. 17-asrdan boshlab, milliy pedagogikada

ta'lim-tarbiyaning mohiyatiga emas, balki tashqi jihatlariga e'tibor kuchaydi, turmush talablarining hisobga olmay, hayotiy zamindan uzilish sodir bo'ldi. Natijada, jamiyat taraqqiyoti susaydi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham tanazzulga yuz tutildi.

Xulosa. Agar dinshunoslik va pedagogika bir birini to'ldirsa bo'lajak pedagogning mahorati ortib, o'z o'quvchilariga yanada sifatliroq ta'lim berishi, umumiy dunyoqarashi keng bo'lishi anglashiladi. Pedagoglar dinlarni shaxsga tushintirish va tanitish, tarixini o'rgatish va har kimda vijdon erkinligi borligini maktab o'quvchilaridan boshlab tushuntirsa, dinlar aro nizolar bo'lmaydi. Bo'lajak pedagoglarga Dinshunoslik fanini puxta va chuqur o'rgatish har tomonlama manfaatli va keraklidir. Zero, bugungi murakkab zamonda o'z dinini va ildizlarini yaxshi bilgan mutaxassislar jamiyat uchun o'ta zaruriy kuch bo'lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Хиясова С. Г., Мустафаева М. Г., Мустафаев Ф. М. Проблемы преподавания религиоведения в вузе (вопросы статуса, структуры и методологии) //Экономические и гуманитарные исследования регионов. – 2018. – №. 3. – С. 51-56.
2. Касимова З. Х. Специфические особенности преподавания религиоведческих дисциплин в светском вузе //Proceedings of International Educators Conference. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 101-105.
3. Шубаева У. К. Проблемы преподавания религиоведения в университете //Редакторлық алқа. – 2016. – С. 79.
4. Taira T. Categorizing “religion”: From case studies to methodology //Implicit Religion. – 2017. – Т. 20. – №. 4. – С. 377-384.